

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 4, 30 Апрел**

**MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**Turopova Nigora Xolmurod qizi**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

[nturopova@tersu.uz](mailto:nturopova@tersu.uz)

**Kenjaqulov Siroj Sobir o'g'li**

Termiz davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya** .Mazkur maqolada mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari to'g'risida muallif tomonidan fikr mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, valyuta munosbatlari, fiskal siyosat, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi.

### **ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ**

**Аннотация** В данной статье представлены взгляды автора на возможности развития национальной экономики в нашей стране. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по направлениям экономического развития.

**Ключевые слова:** национальная экономика, валютные отношения, фискальная политика, автомобильная промышленность, сельское хозяйство.

### **ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ**

**Аннотация** В данной статье представлены взгляды автора на возможности развития национальной экономики в нашей стране. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по направлениям экономического развития.

**Ключевые слова:** национальная экономика, валютные отношения, фискальная политика, автомобильная промышленность, сельское хозяйство.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini tubdan rivojlantirish, iqtisodiyotning lokomativ tarmoqlarini aniq belgilab olgan holda milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish imkoniyatlari yaratib kelinmoqda. Prezident

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 4, 30 Апрел**

taqdim etgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat bo'lib, u 5 yil avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning doirasida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli islohotlarning uzviy davomi ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishi - milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarni Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida boshlangan islohotlarning davomi sifatida baholash mumkinligini aks ettiradi. Aynan shu Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning meyoriy-huquqiy asosi sifatida gavdalanadi. O'z o'rnida shuni ham aytish joizki, samarali amalga oshirilgan islohotlar navbatdagi muvaffaqiyat debochasiga garovdir.

2022-2026-yillardagi ustuvor vazifa sifatida, aynan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali aholi jon boshiga YalM hajmini oshirish ko'zdautilganligida ham o'ziga xos ma'no bor.

O'tgan besh yil, ya'ni 2017-2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sanoatning yetakchi tarmoqlari (to'qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish strategiyalari qabul qilindi. Bu ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning bir imkoniyati ekanligini ko'ramiz.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, xususan paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirildi.

O'z navbatida, hududlarning iqtisodiy potentsialini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, mazkur zonalarga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun tegishli imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi.

Yetakchi tarmoqlarga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari tashkil etilib, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur infratuzilmalar barpo etildi. Yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan innovatsion texnoparklar tashkil etilib, ularda zamonaviy ilm-fan yutuqlari orqali yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 4, 30 Апрел**

Shu bilan birga, O'zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish orqali sayyohlik infratuzilmasi rivojlantirildi, sayyohlik xizmatlari tarkibining (ziyorat turizmi, tibbiy turizm, kino turizmi va hokazolar) yana ham kengaytirilishi natijasida mamlakatning sayyohlik potensiali yildan yilga oshib bormoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022-2026-yillarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlarda amalga oshirilgan islohotlarni samarali davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish, 2030 yilga borib esa, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish maqsad qilingan.

Bunga esa, o'z navbatida, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish orqali erishish ko'zda tutilgan.

O'z o'rnida aytish lozimki, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning samarali va jadal rivojlanishi mamlakatdagi YaIM hajmining ortishi va shu orqali aholi jon boshiga YaIM hajmining oshishiga ham olib keladi.

Qayd etish muhimki, 2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan eng muhim iqtisodiy islohotlardan biri, bu milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'ldi.

Shu bilan birga, pul-kredit (monetar) siyosati sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi, jumladan to'lov tizimlari rivojlantirildi, chet el valyutasini cheklovsiz sotib olish imkoniyatini yaratildi, naqd pul muammosi hal etildi, uzlucksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Tashqi savdoning liberallashtirilishi natijasida tashqi savdo hajmi ham jadal oshib bormoqda.

Valyuta va tashqi savdoning liberallashtirilishi, iqtisodiyotga bozor mexanizmlari tamoyillarining joriy etilishi, narxlarning erkinlashtirilishi va shu bilan bog'liq boshqa islohotlar ortidan mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani past darajada va barqaror ushlab turish ustuvor vazifa sifatida oldinga chiqdi.

Shu bois, Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish navbatdagi vazifa sifatida

# **МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:**

## **ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 4, 30 Апрел**

belgilandi. Zero, mamlakatda ichki narxlar barqarorligining ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanib, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish hamda rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zarur mezon sanaladi.

Alohida e'tirof etish joizki, inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari, iqtisodiy o'sishdagi muvozanatni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholi yashash darajasini oshirishda muhim omil sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yillikda mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida bir qator strategik vazifalar belgilangan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo 'llab-quvvatlash, biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo'yicha islohotlarni davom ettirish, kambag'allikni ikki barobar qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan.

Mazkur vazifalar Harakatlar strategiyasi doirasida samarali amalga oshirilgan islohotlarning uzviy davomi yoki boshqacha aytganda, yangi muvaffaqiyatning boshlanishi bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy farovonligini va boshlangan islohotlar samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining "market-meykerlar" sifatidagi faolligi hamda ularning valyuta kursini belgilashdagi roli oshirish uchun choratadbirlar ishlab chiqarilishi zarurdir.

Shu bilan birga bu siyosat pul emissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishining oldini olish, mamlakat to'lov balansini bir me'yorda saqlash kabi maqsadlami ham o'z ichiga oladi. Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib, ishlab chiqarish sohalariga ustunlik berildi. Moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish talablari ham ko'zda tutildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-yanvardagi Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Foyqdalanish manbai: <https://uza.uz/posts/3329>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 4, 30 Апрел**

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Foyqdalanish manbai: <https://lex.uz/docs/3564970> "Moliyaviy texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali "Moliyaviy texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali I son 2023-yil 125 ISSN: 2181-3965 VOLUME 2

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori – Foyqdalanish manbai: <https://lex.uz/ru/docs/3806053>

4. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 386 b.

5. Буранова, Л. В. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИПОТЕЧНОГО ЖИЛИЩНОГО КРЕДИТОВАНИЯ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 437-345.

6. Turopova, N. (2023). O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy molianing o 'ziga xos xususiyatlari.

7. Turopova, N., & Jumanazarov, H. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI. Молодые ученые, 2(9), 129-131.

8. Turopova, N., & Ochilov, J. (2024). MAKABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'GATISH BORASIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI. Молодые ученые, 2(9), 124-128.

9. Turopova, N., & Daniyarov, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA SHAXSIY OLIYAVIY JAMG 'ARMA YIG 'ISHDA OYLIK MAOSHNING O'RNI. Молодые ученые, 2(9), 60-62.

10. Turopova, N., & Buriyev, A. (2024). ASSESSMENT AND IMPLEMENTATION METHODS OF THE EFFECTIVENESS OF MARKETING ACTIVITIES. Молодые ученые, 2(9), 24-29.

11. Turopova, N., & Abdurahmonov, B. (2024). MARKETING: MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI. Молодые ученые, 2(9), 4-11.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрел

12. Turopova, N., & Qudratov, I. (2024). INFLYATSIYA: O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYA DARAJASI. *Молодые ученые*, 2(9), 91-97.
13. Turopova, N., & Jo'rayev, A. (2024). TALABA-YOSHLAR TA'LIM DASTURIDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O 'RGATISH METODOLOGIYASI. *Молодые ученые*, 2(9), 63-66.
14. Turopova, N., & Norbekov, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *Молодые ученые*, 2(9), 103-106.
15. Turopova, N., & Norbayev, S. (2024). TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLARGA QILINGAN INVESTITSIYALAR T AHLILI VA SHU BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR. *Молодые ученые*, 2(9), 85-87.
16. Turopova, N., & Keldiyev, A. (2024). MAMLAKAT BANK TIZIMINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(9), 76-78.
17. Turopova, N., & Elomonov, H. (2024). O 'ZBEKISTONDA HUDUDLAR KESIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI. *Молодые ученые*, 2(9), 36-42.
18. Turopova, N., & Jo'lliyev, M. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIYOTNING TUTGAN O'RNI. *Молодые ученые*, 2(9), 67-72.
19. Turopova, N., & Elmurodova, M. (2024). TEKNOLOGIYALARING RIVOJLANISHINING ISH O 'RNIGA TA'SIRI. *Молодые ученые*, 2(9), 33-35.
20. Turopova, N., & Misirov, T. (2024). O 'ZINI O 'ZI BOSHQARISH. *Молодые ученые*, 2(9), 111-113.
21. Turopova, N., & Jumayev, R. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(9), 73-75.
22. Turopova, N., & Choriyev, M. (2024). "ISLOM IQTISODIYOTI" VA "ISLOM MOLIYASI" TUSHUNCHALARI VA ISHLASH TARTIBI. *Молодые ученые*, 2(9), 30-32.
23. Turopova, N., & Ergasheva, F. (2024). TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI VA AXBOROT RESURSLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Молодые ученые*, 2(9), 43-45.